

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI

ANDIJON DAVLAT UNIVERSITETI

B.T.QODIROVA

BOLALARNING IJTIMOIIY MOSLASHUVI

o‘quv qo‘llanma

Toshkent
“Innovatsiya-Ziyo”
2021

UO'K: 373.6
KBK: 74.200.526
Q 95

B.T.Qodirova

**Bolalarning ijtimoiy moslashuvi/o'quv qo'llanma/- Toshkent:
«Innovatsiya-Ziyo», 2021, 196 b.**

Ushbu o'quv qo'llanma ijtimoiy pedagogika fanining yuzaga kelishidagi madaniy-tarixiy an'analar, uning kategoriya va tamoyillari, ijtimoiy-pedagogik tadqiqot metodlari va ijtimoiy pedagogning turli toifa bolalari bilan ishlashining o'ziga xosliklarini o'rganishga yo'naltirilgan.

Qo'llanmada bolalarni ijtimoiylashtirishning asosiy omillari va qonuniyatlari va ijtimoiy-pedagogik faoliyatning o'ziga xosliklari va gumanistik yo'nalganliklarini yoritilgan.

Taqrizchilar:

M.B.Artikova

Andijon davlat universiteti "Maktabgacha pedagogika "
kafedrasi mudiri, p.f.d.dotsyent

G.Sultonova

Andijon viloyat Maktabgacha ta'lim boshqarmasining
Maktabgacha ta'lim tashkilotlari faoliyatlarini muvofiqlashtirish
va tahlil bo'limi boshlig'i

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM
VAZIRLIGI TOMONIDAN NASHRGA TAVSIYA ETILGAN.**

ISBN 978-9943-6542-1-1

© B.T.Qodirova, 2021.
"Innovatsiya-Ziyo", 2021.

KIRISH

Bugungi kunda mamlakatimizda olib borilayotgan islohotlar qatorida maktabgacha ta'lim muassasalari faoliyatida ham keng ko'lamli islohotlar olib borilmoqda. Bu islohotlar bolalarni bilimli, intellektual salohiyatli, jismonan yetuk qilib tarbiyalash maqsadida amalga oshirilmoqda. Bu jarayonda maktabgacha ta'lim tashkilotlarining o'rni katta ahamiyatga ega.

Bolalarni ijtimoiy hayotga moslashtirish, ayni rivojlanib borayotgan bu zamonda o'z o'rniga ega bo'la oladigan shaxs sifatida tarbiyalash juda muhim jarayon hisoblanadi, shuning uchun ham bolalarni yoshlikdan asta-sekin hayotning har bir jabhasiga moslashtirish zarur. Qo'llanmada bolani ijtimoiylashtirishning asosiy omillari va qonuniyatlari yoritilib, ijtimoiy-pedagogik faoliyatning o'ziga xosliklari va gumanistik yo'nalganliklarini yoritishga harakat qilindi.

Ushbu o'quv qo'llanma ijtimoiy pedagogika fanining yuzaga kelishidagi madaniy-tarixiy an'analar, uning kategoriya va tamoyillari, ijtimoiy-pedagogik tadqiqot metodlari va ijtimoiy pedagogning turli toifa bolalari bilan ishlashining o'ziga xosliklarini o'rganishga yo'naltirilgan.

1-MODUL. TARBIYA – IJTIMOIIY HODISA

1-mavzu. Tarbiya – ijtimoiylashtirish omili. Ijtimoiylashtirish – tarbiyaning bosh maqsadi

Reja:

1. Tarbiya jarayoni ijtimoiy hayotning ajralmas qismi sifatida.
2. Tarbiya jarayonida ijtimoiylashtirish hodisasi.
3. Sog'lom pedagogik tafakkur masalasi.

Tayanch soʻz va iboralar: tarbiya, ijtimoiylashtirish, pedagogika, jamiyat, jamiyat taraqqiyoti, sog'lom pedagogik tafakkur, shaxs, irsiy va biologik omillar.

Tarbiya – shaxsda muayyan jismoniy, ruhiy, axloqiy, ma'naviy sifatlarni shakllantirishga qaratilgan amaliy pedagogik jarayon; insonning jamiyatda yashashi uchun zarur bo'lgan xususiyatlarga ega bo'lishini ta'minlash yo'lida ko'riladigan chora-tadbirlar yig'indisi. Tarbiya insonning insonligini ta'minlaydigan eng qadimiy va abadiy qadriyatdir. Tarbiyasiz alohida odam ham, kishilik jamiyati ham mavjud bo'la olmaydi. Chunki odam va jamiyatning mavjudligini ta'minlaydigan qadriyatlar tarbiya tufayligina bir avloddan boshqasiga o'tadi.

Pedagogik adabiyotlarda «tarbiya» atamasi keng va tor ma'nolarda ishlatiladi. Keng ma'noda tarbiya inson shaxsini shakllantirishga, uning jamiyat ishlab chiqarishi va ijtimoiy, madaniy, ma'rifiy hayotida faol ishtirokini ta'minlashga qaratilgan barcha ta'sirlar, tadbirlar, harakatlar, intilishlar yig'indisini anglatadi. Bunday tushunishda tarbiya faqat oila, maktab, bolalar va yoshlar tashkilotlarida olib boriladigan tarbiyaviy ishlarni emas, balki butun ijtimoiy tuzum, uning yetakchi g'oyalari, adabiyot, san'at, kino, radio, televideniya va boshqalarni ham o'z ichiga oladi. Shuningdek, keng ma'nodagi tarbiya tushunchasi ichiga ta'lim va ma'lumot olish ham kiradi.

Tor ma'noda tarbiya shaxsning jismoniy rivoji, dunyoqarashi, ma'naviy-axloqiy qiyofasi, estetik didi rivojlanishiga yo'naltirilgan pedagogik faoliyatni anglatadi. Buni oila va tarbiyaviy muassasalar hamda jamoat tashkilotlari amalga oshiradi. Ta'lim va ma'lumot olish tor ma'nodagi tarbiya ichiga kirmaydi. Lekin har qanday tarbiya ta'lim bilan chambarchas bog'liq holdagina mavjud bo'ladi. Chunki ta'lim va ma'lumot olish jarayonida shaxsning faqat bilimi ko'payibgina qolmay, balki axloqiy-ma'naviy sifatlari qaror topishi ham tezlashadi.

Tarbiya har qanday jamiyat va har qanday mamlakat hayotida hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Yosh avlodning, umuman, jamiyat a'zolarining tarbiyasi bilan yetarlicha shug'ullanmagan mamlakat turg'unlik va inqirozga mahkumdir. Negaki, o'sishi va rivojlanishi uchun har qanday jamiyatda ham moddiy va ma'naviy boyliklar ishlab chiqarish. to'xtovsiz ravishda yuksalib borishi lozim. Buning uchun yosh avlod moddiy va ma'naviy boyliklar yetishtirishni ajdodlari darajasida, ulardan ham yaxshiroq ishlab chiqara bilishlari kerak. Yosh avlodda ana shunday moddiy va ma'naviy qobiliyatlarni shakllantira bilish uchun esa, jamiyat uzluksiz ravishda samarali faoliyat ko'rsatadigan tarbiyaviy intizomlar tizimiga ega bo'lishi lozim.

Tarbiya jamiyat taraqqiyotining turli davrlarida turlicha izohlab kelingan. Keyingi yillarda insonlarning tabiat,jamiyat,dinga bo'lgan munosabatlarida erkinliklar yuzaga keldi.Dunyoning turli davlatlaridagi xalqlarning madaniy qarashlari va o'ziga xos hususiyatlariga qaratsak o'sib kelayotgan yosh avlodning hayotga moslashuvi bir muncha osonroq kechadi. Xalq pedagogikasida shaxs dunyoni hayotiy va shaxsiy tajriba orqali o'zlashtiradi. Chunki shaxs boshqalar bilan muomalaga kirishar ekan ularning o'ziga xos hususiyatlarini o'rganadilar.So'nggi yillar davomida pedagogika va boshqa fanlarda ijtimoiylashuv va tarbiya tushunchalarining o'zoro munosabatlari keng muhokama qilib kelinmoqda.Bugungi kun talablaridan kelib chiqib, bu muammolarga alohida e'tibor bilan qarash kerakligi aniq bo'ldi.

Bundan tashqari tarbiya orqali har qanday odamni istagan ijtimoiy qiyofaga solish mumkin degan qarash hukmron

bo'lganligi uchun ham uning shaxsni shakllantirishdagi o'rniga oshiqcha baho berildi. Tarbiyalanuvchi shaxsining tarbiyaga berilish yoki berilmaslik xususiyatlarining hisobga olinmasligi tarbiyaviy tadbirlarga mahliyo bo'lishdek pedagogik xatolikka olib keldi. Buning natijasida tarbiya maqsadsiz bo'lib qoldi, tarbiyalanuvchilarga alohida shaxs sifatida emas, istalgan ijtimoiy yo'nalishga solinishi mumkin bo'lgan qiyofasiz to'da, olomon tarzida qarash qaror topdi. Bu hol tarbiyaning samarasizligiga olib keldi. Chunki tarbiyaning asosiy obyekti bo'lmish shaxs va uning o'ziga xoslik jihatlari unutilgan edi. Pedagogik tizimidagi kamchiliklarning ildizi, asosan, mana shu yondashuv tarziga borib taqaladi.

O'zbekiston mustaqillikka erishgach, tarbiya va unga bog'liq jarayonlarga yangi hamda sog'lom pedagogik tafakkurga tayangan holda yondashuv qaror topa boshladi. Uni izohlashda g'ayriilmiy sinfiy-partiyaviy yondashuvdan voz kechildi.

Pedagogikada «tarbiya» atamasi keng va tor ma'nolarda ishlatiladi

Keng ma'noda-inson shaxsini shakllantirishga qaratilgan ijtimoiy, madaniy, ma'rifiy tadbirlar, tavsiyalar, harakatlar yig'indisidir.

Tor manoda- shaxsning jismoniy rivoji, dunyoqarashi, ma'naviy-axloqiy qiyofasi, estetik didini o'stirishga qaratilgan pedagogic faoliyat kiradi.

¹ <https://uz.wikipedia.org/wiki/Tarbiya>